

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

RAQAMLAR

8811,6 mlrd.so'm

Sanoat ishlab chiqarish
hajmi

111,7 %

sanoat ishlab chiqarish
indeksi

5565,7 mlrd.so'm

Iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi

122,7 %

o'sish sur'ati

63,2 %

Iste'mol tovarlarining jami
sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi

36,3 %

sanoat ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi





Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 8811,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 111,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati - 11,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash - 22,5 % ni, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 12 martaga, SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 6,7 % ga o'sishi kuzatildi.


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

95,594



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,01 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8423,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,6 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,1 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,7 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,1 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 20,5 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 17,7 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2018 yil yanvar-dekabr</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		571,7	136,3
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		145,1	134,9
Engil avtomobillar (maxsus engil avtomobilarsiz)		51824	35051
Maxsus engil avtomobillar – dona		7288	7382
Aroq – ming litr		1279,1	1763,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		21,4	19,4
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr		1192,9	1200,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		81648,1	76168,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		1528,3	1923,4

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2018 yil yanvar-dekabr</i>
Milliy non (yopgan non) – tonna		702,0	335,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		18001,9	18864,6
Xo'jalik sovuni – tonna		5521	7379
Paxta tolasi –tonna		58846,7	78768,0
Paxta chigit-i-tonna		91707,8	122437,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Maxsus engil avtomobillari 94 donaga;
2. Aroq 483,9 ming litrga;
3. Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lган boshqa tabiiy uzum vinolari 7,1 ming litrga;
4. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
5. Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) 395,1 tonnaga;
6. Tozalangan o'simlik yog'i 862,7 tonnaga;
7. Xo'jalik sovuni 1808 tonnaga;
8. Paxta tolasi 19921,3 tonnaga;
9. Paxta chigit 30729,2 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 331,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,765 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 122,5 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,635 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 63,2 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish 36,0 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lган Xazorasp tumani 46,1 foiz, Urganch shahri 21,8 foiz, Xonqa 5,8 foiz, Gurlan tumani 4,3 foiz, Shovot 3,9 foizni va Yangibozor 3,4 foiz hamda eng past bo'lган Qo'shko'pir tumani 2,2 foiz, Xiva shahri 1,6 foiz va Xiva tumani 1,6 foizni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2018 yil yanvar-dekabr</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	8811,6	6457,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,6	0,1
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,6	0,1
Qayta ishlash faoliyati		
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1271,7	1018,5
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	287,0	225,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1805,3	1568,5
Kiyim ishlab chiqarish	32,9	59,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	10,5	6,6
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	9,0	5,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	20,4	18,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,4	1,1
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,1	13,4
Asosiy farmasevtika	8,7	7,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	123,1	92,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	371,9	260,0
Metallurgiya sanoati	31,6	8,6
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	176,0	160,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	42,1	33,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	388,4	217,0


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3617,3	2349,9
Mebel ishlab chiqarish	35,6	23,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	139,3	132,2
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	21,9	15,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	331,6	192,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	55,9	46,1

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-dekabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-dekabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 40,5 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-dekabr oylarida bu ko'rsatkich 46,3 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,3 foizdan 8,2 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 47,4 foizdan 41,0 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 9,2 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 7,8 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4076,0 mlrd.so'mlik (2614,2 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 725,0 mlrd.so'mlik (536,7 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 3613,2 mlrd.so'mlik (3060,0 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4760,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 109,8 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Xazorasp tumani 10829,7 ming so'mdan 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 16518,2 ming so'mga, Urganch shahri 10880,6 ming so'mdan 13474,8 ming so'mga, Xonqa tumani 2208,9 ming so'mdan 2787,0 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**2019 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)**




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 5565,7 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1263,5 mlrd.so'mni va 4302,2 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 109,3 foiz va 127,3 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,2 foizni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 70,2 foiz) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3006,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 120,7 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Xazorasp tumani 9641,7 ming so'mdan 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 13281,2 ming so'mga, Urganch shahri 5901,6 ming so'mdan 6014,7 ming so'mga, Gurlan tumani 1134,4 ming so'mdan 1188,3 ming so'mga Xonqa tumani 1313,7 ming so'mdan 1356,3 ming so'mga o'sgani kuzatildi.